



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

TOLERANTLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ONLAYN TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI

Karimova E'zozxon Gapirjovna,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, mustaqil tadqiqotchi.

Annotatsiya.

Mazkur maqolada tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida onlayn ta'lim muhitining o'rni va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda onlayn ta'lim nafaqat bilim beruvchi platforma, balki turli madaniyat, dunyoqarash va ijtimoiy tajribaga ega bo'lgan o'quvchilarni yagona kommunikativ makonda birlashtiruvchi ijtimoiy-pedagogik muhit sifatida talqin etiladi. Onlayn ta'lim vositalari (forumlar, videokonferensiyalar, hamkorlikdagi raqamli loyihalar, ijtimoiy platformalar, interaktiv resurslar) orqali talabalar o'rtasida madaniyatlararo muloqot, fikrlar xilma-xilligini qabul qilish, empatiya, hurmat va bag'rikenglik kabi tolerantlikning tarkibiy komponentlari tabiiy shakllanishi asoslab beriladi. Maqolada onlayn ta'lim sharoitida tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari, didaktik shartlari va amaliy ko'rinishlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: tolerantlik kompetensiyasi, onlayn ta'lim, madaniyatlararo muloqot, empatiya, raqamli hamkorlik, pedagogik mexanizm, ijtimoiy-pedagogik muhit, bag'rikenglik.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ОНЛАЙН-ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ КОМПЕТЕНЦИИ ТОЛЕРАНТНОСТИ

Каримова Эъзозхон Гапиржоновна,

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье анализируется роль и педагогические возможности онлайн-обучения в процессе формирования компетенции толерантности. Онлайн-обучение рассматривается не только как средство передачи знаний, но и как социально-педагогическая среда, объединяющая обучающихся с различным культурным, мировоззренческим и социальным опытом в едином коммуникативном пространстве. Обосновывается, что такие инструменты онлайн-обучения, как форумы, видеоконференции, совместные цифровые проекты, социальные платформы и интерактивные ресурсы, способствуют естественному формированию у студентов эмпатии, уважения, принятия разнообразия мнений и межкультурного диалога как ключевых компонентов толерантности. В статье раскрываются педагогические механизмы, дидактические условия и практические формы развития компетенции толерантности в условиях онлайн-образования.

Ключевые слова: компетенция толерантности, онлайн-обучение, межкультурная коммуникация, эмпатия, цифровое сотрудничество, педагогический механизм, социально-педагогическая среда, уважение к разнообразию.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF ONLINE EDUCATION IN DEVELOPING TOLERANCE COMPETENCE

Karimova E'zoxon Gapirjovna,

Nizami Tashkent State Pedagogical University, independent researcher.

Annotation.

The article examines the role and pedagogical potential of online learning in developing tolerance competence. Online learning is interpreted not only as a knowledge delivery system but also as a socio-pedagogical environment that brings together learners with diverse cultural backgrounds, worldviews, and social experiences within a shared communicative space. The study substantiates that online tools such as forums, video conferences, collaborative digital projects, social platforms, and interactive resources naturally foster empathy, respect, acceptance of diversity, and intercultural dialogue as key components of tolerance. The paper highlights the pedagogical mechanisms, didactic conditions, and practical formats for developing tolerance competence in online education settings.

Keywords: tolerance competence, online learning, intercultural communication, empathy, digital collaboration, pedagogical mechanism, socio-pedagogical environment, respect for diversity.

Kirish. Zamonaviy dunyo madaniy, etnik, diniy va dunyoqarash xilma-xilligining jadal ortishi bilan xarakterlanadi. Globalizatsiya, xalqaro migratsiya hamda jamiyatning keng ko'lamda raqamlashuvi natijasida turli madaniyat vakillari o'rtasidagi aloqa endilikda nafaqat real ijtimoiy makonda, balki onlayn kommunikativ maydonda ham faol kechmoqda [1, 2]. Raqamli kommunikatsiya vositalari madaniyatlararo muloqot uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, virtual muhitda ksenofobiya, stereotiplash, axborot manipulyatsiyasi va madaniy izolyatsiya kabi yangi ijtimoiy-psixologik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli tolerantlikni rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida yanada dolzarb tus olmoqda.

Tolerantlik ijtimoiy-madaniy fenomen va pedagogik kategoriya sifatida falsafa, sotsiologiya va psixologiya doirasida keng o'rganilgan bo'lsa-da, bugungi kunda uning rivojlanish jarayoni tobora ko'proq raqamli ta'lim muhiti bilan uzviy bog'lanib bormoqda. Onlayn ta'lim platformalari, masofaviy kurslar, virtual jamoalar, forumlar va videokonferensiyalar ta'lim oluvchilarni turli hudud, millat va dunyoqarash vakillari bilan bevosita muloqotga olib kiradi. Natijada ta'lim jarayoni faqat bilim olish makoni emas, balki madaniyatlararo hamkorlik, fikrlar xilma-xilligini qabul qilish, empatiya va hurmat kabi tolerantlik komponentlari shakllanadigan ijtimoiy-pedagogik muhitga aylanadi.

Xalqaro miqyosda tolerantlikni XXI asr ta'limining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etish YUNESKO hujjatlari, Yevropa Kengashi rezolyutsiyalari hamda "Tolerantlik prinsiplari deklaratsiyasi" (1995)da o'z aksini topgan [3]. Mazkur hujjatlarda ta'lim oluvchilarda bag'rikenglik, inson huquqlariga hurmat, madaniy turfa xillikka ochiqlik kabi sifatlarni

shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi. Hozirgi sharoitda esa bu vazifalarni samarali amalga oshirishda onlayn ta'lim vositalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, tolerantlik masalasiga oid tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, uning onlayn ta'lim muhiti bilan bog'liq pedagogik imkoniyatlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan [4, 5].

Xususan, virtual muloqot jarayonida tolerantlik kompetensiyasining qanday mexanizmlar asosida shakllanishi, onlayn hamkorlik faoliyati orqali empatiya va madaniyatlararo hurmatni rivojlantirish yo'llari, shuningdek, raqamli ta'lim sharoitida tolerantlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik shartlar hali ham chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va metodlari. Tadqiqot tolerantlik kompetensiyasini onlayn ta'lim sharoitida rivojlantirish jarayonini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda nazariy, empirik va amaliy metodlar majmuasi qo'llanildi. Metodlar tanlovi tolerantlikning kognitiv, affektiv va xulq-atvor komponentlarini raqamli muloqot muhiti orqali shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirildi.

1. Nazariy tahlil va konseptual modellashirish metodi. Ushbu metod orqali tolerantlik, kompetensiya, onlayn ta'lim muhiti, madaniyatlararo muloqot tushunchalarining o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Ilmiy manbalar, xalqaro hujjatlar va pedagogik yondashuvlar asosida tolerantlik kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqildi hamda onlayn ta'lim muhiti bilan integratsiyalashgan konseptual model taklif etildi.

2. Onlayn hamkorlik faoliyatini tashkil etish (Collaborative Online Interaction) metodi. Talabalar turli hudud va madaniy muhit vakillari bilan kichik guruhlarda onlayn hamkorlikda ishlashga jalb qilindi. Bunda:

- forum muhokamalari;
- videokonferensiyalar;
- umumiy raqamli loyiha;
- fikr almashish sessiyalari tashkil etildi.

Mazkur metod tolerantlikning muloqotga ochiqlik, fikrlar xilma-xilligini qabul qilish, hurmat va e'zozda bo'lish kabi tarkibiy asoslarni tabiiy shakllantirishga xizmat qildi.

3. Raqamli vaziyatli topshiriqlar (Digital Case-based Tasks) metodi. Talabalarga turli madaniy vaziyatlar, ijtimoiy ziddiyatlar, stereotiplar bilan bog'liq onlayn keyslar taqdim etildi. Ishtirokchilar ushbu vaziyatlarga nisbatan o'z pozitsiyalarini asoslab, muhokama qildilar. Ushbu metod tolerantlikning tanqidiy fikrlash, empatiya, ijtimoiy sezgirlik komponentlarini rivojlantirishga qaratildi.

4. Reflektiv onlayn kundalik (Reflective Digital Journaling) metodi. Talabalar onlayn muloqot jarayonida o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va qarashlaridagi o'zgarishlarni raqamli kundalik (blog, LMS platforma, Google Classroom) orqali muntazam qayd etib bordilar. Bu metod tolerantlikning affektiv (hissiy) jihatini tahlil qilish imkonini berdi.

5. So'rovnoma va diagnostik baholash metodi. Tadqiqot jarayonida tolerantlik kompetensiyasining rivojlanish dinamikasini aniqlash maqsadida: dastlabki (pre-test), yakuniy (post-test) onlayn so'rovnomalar, Likert shkalasi asosidagi baholash vositalari qo'llanildi. Mazkur metod tolerantlik darajasidagi o'zgarishlarni miqdoriy jihatdan aniqlash imkonini berdi.

6. Kontent-tahlil metodi. Onlayn forumlar, yozma muhokamalar, talabalar tomonidan yaratilgan raqamli materiallar kontent-tahlil qilindi. Tahlil jarayonida hurmat, empatiya, fikrlar

xilma-xilligini qabul qilish kabi indikatorlar ajratib olindi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

“Tolerantlik” atamasi (lot. *tolerantia* — sabr, toqat) tarixan diniy, madaniy va ijtimoiy qarama-qarshiliklar sharoitida shakllangan bo‘lsa-da, zamonaviy talqinda u insonlar o‘rtasidagi xilma-xillikni hurmat qilish, qabul qilish va tushunish madaniyati sifatida keng ma’noga ega bo‘ldi[6]. G‘arbiy Yevropa an‘anasida bu tushuncha diniy urushlar davrida sabr-bag‘rikenglik g‘oyasi sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa, Sharq pedagogik tafakkurida u tasavvuf ta’limoti orqali bag‘rikenglik fenomeni bilan bog‘liq holda rivojlangan.

Bugungi globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida tolerantlik nafaqat axloqiy fazilat, balki professional kompetensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun tolerantlik turli qarashlar, madaniyatlar va ijtimoiy pozitsiyalar bilan ishlash jarayonida zarur kasbiy sifatga aylanadi.

Ilmiy yondashuvlarda tolerantlik turlicha talqin qilinadi: ba’zi tadqiqotchilar uni o‘zgachalikni qabul qilishga toqat sifatida, boshqalari esa faol axloqiy pozitsiya va ijobiy muloqotga tayyorlik sifatida izohlaydi. Zamonaviy pedagogik talqinda esa tolerantlik shaxsning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini birlashtiruvchi integrativ sifat sifatida qaraladi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari ko‘rsatadiki, pedagogikada tolerantlikni aniqlashda bir necha yondashuvlar shakllangan. Birinchi yondashuvda tolerantlikka o‘zgacha bo‘lgan, o‘z hayoti, xulqi, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikrlari, g‘oyalari va e’tiqodiga turlicha bo‘lgan jihatlariga bo‘lgan toqat sifatida qaraladi (A.G.Asmolov, G.U.Soldatova). Ikkinchi yondashuvda tolerantlikni faol axloqiy pozitsiya va boshqa madaniyat, millat yoki din vakillari bilan ijobiy muloqotga psixologik tayyorlik sifatida talqin qilinadi (V.A.Lektorskiy, M.S.Maskovski). Uchinchi yondashuvda tolerantlik shaxsning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini o‘z ichiga olgan integrativ sifat singari tushuniladi (B.Z.Vulfov, P.F.Komogorov) [7, 8].

Aynan ushbu uch komponentli tuzilma raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish orqali tolerantlikni rivojlantirishning metodologik asosini tashkil etadi:

- kognitiv komponent – madaniy xilma-xillikni tushunish;
- emotsional komponent – empatiya va ijobiy munosabat;
- xulq-atvor komponenti – samarali muloqot va hamkorlikdagi birgalikdagi faoliyat ko‘nikmalari.

Raqamli ta’lim platformalari (Padlet, Miro, Canva, Google Classroom va boshqalar) aynan shu uch komponentni bir vaqtning o‘zida faollashtirish imkonini beradi. Masalan, kollaborativ platformalarda ishlash xulq-atvor komponentini, multimodal topshiriqlar emotsional komponentni, reflektiv faoliyat esa kognitiv komponentni rivojlantiradi [9].

Shuningdek, tolerantlikning motivatsion-irodaviy, reflektiv va kommunikativ qo‘shimcha komponentlari ham raqamli muhitda tabiiy ravishda shakllanadi. Onlayn muloqot, fikr almashish, o‘z pozitsiyasini yozma ifodalash va qayta ko‘rib chiqish jarayonlari talabalarda ochiq fikrlilik va o‘zini tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tolerantlikning turlari (etnik, diniy, gender, ijtimoiy va boshqalar) ham aynan raqamli platformalarda tashkil etilgan madaniyatlararo muloqot vaziyatlari orqali amaliy jihatdan namoyon bo‘ladi[10]. Raqamli muhit talabalarni turli qarash va pozitsiyalar bilan bevosita to‘qnash keltiradi, bu esa passiv tolerantlikdan faol tolerantlikka o‘tishni ta’minlaydi.

Shunday qilib, tolerantlik tushunchasining tarixiy-nazariy talqini va uning ko'pkomponentli tuzilmasi raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish orqali tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirish uchun mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Raqamli ta'lim muhiti tolerantlikni tushuntirish emas, balki uni faol pedagogik tajriba orqali shakllantirish imkonini beradi[11,12].

So'nggi yillarda onlayn ta'lim faqat masofaviy o'qitish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish muhiti sifatida ham e'tirof etilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, virtual ta'lim muhiti talabalarni turli madaniy, ijtimoiy va dunyoqarash jihatidan farqli bo'lgan ishtirokchilar bilan muloqot qilishga jalb etadi. Bu esa tolerantlik, empatiya va madaniyatlararo hurmatni shakllantirish uchun tabiiy pedagogik sharoit yaratadi. Onlayn ta'lim orqali tolerantlikni rivojlantirishga doir xalqaro tajriba tahlili 1-jadvalda keltirib o'tilgan.

1-jadval

Tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishda onlayn ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishning benchmarkingga asoslangan arxitektonikasi

Mintaqa / davlat	Qo'llanilayotgan yondashuv	Foydalaniladigan platformalar	Tashkil etiladigan faoliyat turi	Tolerantlikka ta'siri
Yevropa Ittifoqi (Erasmus+, Virtual Exchange)	Virtual almashinuv, madaniyatlararo onlayn hamkorlik	Moodle, Zoom, Padlet	Xalqaro guruhiiy loyiha ishlari, muhokamalar	Madaniyatlararo hurmat, ochiq fikrlilik
AQSh (Harvard, MIT tajribasi)	Collaborative Online Learning, loyiha asosida o'qitish	Google Classroom, Bloglar, Forumlar	Onlayn muhokama, refleksiv yozuv, guruhiiy tadqiqot	Empatiya, boshqalar fikrini tushunish
Kanada	Multikultural onlayn ta'lim modeli	LMS tizimlari, Discussion boards	Turli ijtimoiy guruhlar bilan onlayn muloqot	Ijtimoiy tolerantlik, murosali muloqot
Janubiy Koreya	Xalqaro onlayn loyiha ishlari	Zoom, Miro, Google Docs	Xalqaro talabalar bilan hamkorlik	Kelishuv madaniyati, hurmat
Yaponiya	Madaniyatlararo onlayn seminarlar	LMS, Video platformalar	Onlayn seminar va rolli o'yinlar	Empatiya, madaniy sezgirlik
Singapur	Global classroom modeli	Padlet, Canva, Teams	Multimodal topshiriqlar, guruhiiy loyiha	Ochiq fikrlilik, ijodiy ifoda
UNESCO tavsiyalari asosida	Raqamli muloqot va hamkorlik	Turli raqamli platformalar	Fikr almashish, kollaboratsiya	Faol tolerantlik, global fikrlash

Zamonaviy pedagogik ilm-fan va ta'lim amaliyotida tolerantlikni rivojlantirish uchun katta usullar majmui va texnologiyalari mavjud. Tadqiqotlarni tizimli tahlil qilish quyidagi pedagogik texnologiyalar majmuini tasniflash imkonini berdi.

Samarali muloqot texnologiyalari. Muloqot tolerantlikni rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida qaraladi. O'quv muloqot texnologiyalari (S.Yu.Kurganov, V.S.Bibler) ta'lim jarayonini turli madaniy pozitsiyalarning tutashuvi, nuqtai nazarlar to'qnashuvi va haqiqatni birgalikda izlash sifatida tashkil qilishni nazarda tutadi. Samarali shakllari: diskussiyalar, debatlar, filosofik suhbatlar, sokratik muloqotlaran iborat. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, muloqot texnologiyalarini tizimli qo'llash tanqidiy fikrlash, empatiya va o'zgalar nuqtai nazarlarini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi [15].

O'yin va trening texnologiyalari. Ijtimoiy-psixologik tolerantlik treninglari madaniyatlararo muloqot vaziyatlarini modellashtirish va xavfsiz muhitda tolerant xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Maxsus shakllar: rolli o'yinlar, simulyatsiyalar, keys-stadidan iborat. Detsentratsiya o'yinlari – vaziyatni boshqa inson ko'zlari bilan ko'rish qobiliyati – alohida ahamiyatga ega. 47 ta tadqiqotning metatahlili shuni ko'rsatdiki, o'yin metodlari ta'lim oluvchilarning etnik tolerantlik darajasini statistik sezilarli tarzda ($p<0,01$) oshiradi [16].

Loyihaviy faoliyat. Madaniyatlararo va ijtimoiy loyihalar tolerant xulq-atvorni amaliy o'zlashtirish uchun sharoit yaratadi. Samarali loyihalar: turli xalqlar madaniy merosini o'rganish, madaniy almashinuvlar tashkil etish, volontyorlik faoliyati, tolerantlik muzeylarini yaratish. Loyihaviy faoliyat nafaqat tolerantlikning kognitiv komponentini (madaniyatlar haqida bilimlar), balki xulq-atvor komponentini (aloqa qilish tajribasi) ham rivojlantiradi [17].

San'at va adabiyot vositalaridan foydalanish. Badiiy adabiyot, kino, teatr, tasviriy san'at empatiyani rivojlantirish va «O'zga»ni tushunishda katta salohiyatga ega. Turli madaniyat vakillari hayotini ochib beradigan asarlarni o'qish va muhokama qilish, tolerantlik muammolariga bag'ishlangan filmlarni tomosha qilish, san'at asarlarini tahlil etish «O'zga»ning tajribasini emotsional jihatdan his etishga yordam beradi. Tadqiqotlar tasdiqlaydiki, badiiy matnlar bilan ishlash etnik noto'g'ri tushunchalar darajasini sezilarli darajada pasaytiradi [18].

Interaktiv o'qitish usullari. Bu guruhga ta'lim jarayoni ishtirokchilarining faol o'zaro hamkorligini nazarda tutadigan usullar kiradi: guruhdagi ish, kooperativ o'qitish, loyiha usuli, o'zaro o'qitish. Ayniqsa tarkibi jihatdan xilma-xil guruhlarda kooperativ o'qitish texnologiyasi (Cooperative Learning in Heterogeneous Groups) samarali hisoblanadi, chunki u ijobiy o'zaro bog'liqlik, teng huquqli ishtirok va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi [19].

Raqamli texnologiyalar. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida tolerantlikni rivojlantirishda onlayn-texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda: virtual tolerantlik muzeylari, ta'lim veb-kvestlar, madaniyatlararo muloqot uchun ijtimoiy tarmoqlar, tolerantlik muammolariga bag'ishlangan ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC). Telekommunikatsiya loyihalari turli mamlakatlar va madaniyatlarga mansub o'quvchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, tadqiqotlar raqamli muhitda xavf-xatarlar — nafrat tili, kiberbulling tarqalishini qayd etadi, bu esa raqamli tolerantlikni rivojlantirish bo'yicha maxsus ish olib borishni talab qiladi [20].

Xulosa. Mazkur tadqiqot raqamli ta'lim platformalaridan maqsadli va metodik

foydalanish bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tolerantlikning tarixiy-nazariy talqini, uning ko'pkomponentli tuzilmasi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'un holda raqamli muhit imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tolerantlik kompetensiyasi nazariy tushuntirish yoki ma'ruza orqali emas, balki kollaborativ, multimodal va reflektiv faoliyat jarayonida shakllanadi. Ayniqsa, raqamli ta'lim platformalari ushbu faoliyatlarni yagona pedagogik makonda birlashtirib, talabalarni real ijtimoiy muloqot, kelishuv va fikr almashish jarayoniga jalb etadi. Natijada tolerantlik talabalarda tushuncha emas, balki muloqot madaniyati, fikrlash odati va shaxsiy pozitsiyaga aylanadi.

Ishlab chiqilgan mualliflik metodlari - Raqamli kollaborativ kelishuv metodi, Multimodal empatik ifoda metodi hamda Raqamli reflektiv qayta baholash metodi - tolerantlikning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlariga kompleks ta'sir ko'rsatishi tajriba-sinov natijalari bilan tasdiqlandi. Empatiya, ochiq fikrlilik, muvofiqlik muloqot va madaniyatlararo hurmat ko'rsatkichlarining sezilarli o'sishi raqamli platformalarning pedagogik salohiyatini yaqqol namoyon etdi. Xalqaro tajriba tahlili ham onlayn ta'lim muhitining madaniyatlararo muloqotni tashkil etish, fikrlar xilma-xilligini qabul qilish va global fikrlashni rivojlantirishdagi rolini tasdiqladi. Yevropa, AQSh va Osiyo tajribalarida qo'llanilayotgan virtual hamkorlik, reflektiv muvofiqliklar va multimodal topshiriqlar tolerantlikni shakllantirishning samarali vositasi sifatida e'tirof etilgan. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, raqamli ta'lim platformalari tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik mexanizm sifatida qaralishi lozim. Ularni ta'lim jarayoniga tizimli integratsiya qilish bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi hamda zamonaviy pedagogik tayyorgarlikni mazmunan boyitadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Асмолов А.Г., Солдатова Г.У., Шайгерова Л.А. О смыслах понятия «толерантность» // Век толерантности: научно-публицистический вестник. – 2001. – № 1. – С. 8-18.
2. Banks J.A. Multicultural education: historical development, dimensions, and practice // Review of Research in Education. – 2019. – Vol. 43, No.1. – P. 8-39. DOI: 10.3102/0091732X18817307
3. Declaration of Principles on Tolerance // UNESCO. 1995. URL: <https://www.unesco.org/en/tolerance> (data obrasheniya: 15.12.2024).
4. Вулфов Б.З., Иванов В.Д., Скоробогатова Г.Г. Воспитание толерантности: сущность и средства // Внешкольник. – 2002. – № 6. – С.12-16.
5. Бондирева С.К., Колесов Д.В. Толерантность (введение в проблему). М.: Изд-во МПСИ; Воронеж: МОДЕК, 2003. – 240 с.
6. Лекторский В.А. О толерантности, плюрализме и критицизме // Вопросы философии. – 1997. – № 11. – С. 46-54.
7. Степанов П.В. Воспитание толерантности у школьников: теория, методика, диагностика / под ред. Л.И. Новиковой. М.: АПК и ПРО, 2003. – 84 с.
8. Комогоров П.Ф. Формирование толерантности в межличностных отношениях студентов высшего учебного заведения: дис. ... канд. пед. наук. Курган, 2000. – 193 с.
9. Солдатова Г.У., Шайгерова Л.А., Шарова О.Д. Жит в мире с собой и другими: тренинг толерантности для подростков. – М.: Генезис, 2001. – 112 с.

10. Клепсова Э.Ю. Психология и педагогика толерантности: учебное пособие для слушателей системы дополнительного профессионального педагогического образования. М.: Академический проект, 2004. 176 с.
11. Почебут Л.Г. Этническая толерантность как фактор профилактики межнациональной напряженности // Мир психологии. – 2007. – № 1. – С.146-158.
12. Шалин В.В. Толерантность (культурная норма и политическая необходимость). – Ростов н/Д: Изд-во РГПУ, 2000. – 256 с.
13. Barrett M. Interculturalism and multiculturalism: similarities and differences. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2013. – 48 p.
14. Deardorff D.K. Intercultural competence: mapping the future research agenda // International Journal of Intercultural Relations. – 2020. – Vol. 76. – P. 90-98. DOI: 10.1016/j.ijintrel.2020.03.002
15. Курганов С.Ю. Ребенок и взрослый в учебном диалоге: книга для учителя. – М.: Просвещение, 1991. – 127 с.
16. Pettigrew T.F., Tropp L.R. A meta-analytic test of intergroup contact theory // Journal of Personality and Social Psychology. – 2006. – Vol. 90, No.5. – P. 751-783. DOI: 10.1037/0022-3514.90.5.751
17. Бухарова И.С., Столярова И.В. Диагностика и развитие толерантности личности: учебно-методическое пособие. – Екатеринбург: Российский государственный профессионально-педагогический университет, 2002. – 196 с.
18. Kidd D., Castano Э. Reading literary fiction improves theory of mind // Science. – 2013. – Vol. 342, No. 6156. – P. 377-380. DOI: 10.1126/science.1239918
19. Slavin R.E. Cooperative learning and academic achievement: why does groupwork work? // Anales de Psicología. – 2014. – Vol. 30. – No. 3. – P. 785-791. DOI: 10.6018/analesps.30.3.201201
20. Soldatova G., Rasskazova E. Psychological models of digital competence and online risks in adolescents // Psychology in Russia: State of the Art. – 2021. – Vol. 14. – No. 4. – P. 133-149. DOI: 10.11621/pir.2021.0409